


## II. SANOAT




Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2022 yilning yanvar-iyun oylarida 5 153,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2021 yilning tegishli davriga nisbatan 107,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 94,2 foizni tashkil etdi (2021 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 111,2 %). Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 3,5 foizni (ishlab chiqarish indeksi 108,2 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,8 foizni (ishlab chiqarish indeksi 100,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 1,5 foizni (ishlab chiqarish indeksi 21,8 %) tashkil qildi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi**  
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini  
ishlab chiqarish  
(2022 yilning yanvar-iyun)

	Mrd. so'm	2021 yil yanvar-iyuniga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda
<b>Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi</b>	<b>5 153,4</b>	<b>107,1</b>
<b>Tog'–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>77,0</b>	<b>21,8</b>
<i>ulardan:</i>		
tog'–kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	77,0	21,8
<b>Qayta ishlash sanoati</b>	<b>4 853,1</b>	<b>111,2</b>
<i>undan:</i>		
oziq–ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	649,5	105,5
ichimliklar ishlab chiqarish	4,7	57,0
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1 574,0	99,1
kiyim ishlab chiqarish	200,4	87,2
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	1,0	82,6
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	23,5	153,6
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	14,9	114,1
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	2,8	62,2
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	26,2	16,6
Farmasevtika mahsulotlarini va preparatlarini ishlab chiqarish	0,2	85,2
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	144,0	93,3

davomi


	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>2021 yil yanvar-iyuniga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda</i>
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	7,6	107,0
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	741,8	107,1
metallurgiya sanoati	49,1	74,8
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	42,7	181,6
elektr uskunalarini ishlab chiqarish	193,6	85,0
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,9	3,8 m.
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	25,5	77,4
Mebel ishlab chiqarish	86,1	87,9
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	59,9	130,7
mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	27,4	91,4
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	977,3	2,5 m.
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>180,0</b>	<b>108,2</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>43,3</b>	<b>100,9</b>

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida eng yuqori ulushini ishlab chiqaradigan sanoat korxonlari (94,2 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida sanoat korxonlari tomonidan 5 153,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 107,1 foizni tashkil etdi.



**Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida yuqori ulushini tashkil etgan korxonalar hissasi (foiz hisobida)**




**Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi**

Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Jizzax shahri (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining 29,3 foiz ulushini), Zafarobod (15,4 %) va G'allaorol (20,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



**Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda**





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti  
turlarini ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)


	O'lchov birligi	2022 yil yanvar-iyun	2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan foiz
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>			
Paxta xom-ashyoni qayta ishlash	t	47 916,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	14 584,4	32,6
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	9 176,5	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	1 866,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	152,9	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	3 385,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 5 navli	t	4,0	-
Paxta chigiti	t	23 150,4	51,3
Momiq	t	1 089,7	5,5
Tozalangan paxta yog'i	t	5 766,0	2,2 m.
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	29 382,0	62,2
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	429,3	43,0
Tarkibida yog' yoki hayvon yoki o'simlik mumi bo'lgan moddalarni qayta ishlashning boshqa qoldiqlari va chiqindilari	t	-	-
Yumshoq bug'doy va spel'ta uni	t	36 012,0	110,5
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	20 546,0	40,3
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	908,0	57,1
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	t	23 095,4	92,2

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 600,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 142,5 foizini, uning jami sanoatdagi ulushi 50,5 foizini tashkil etdi.




**Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi**  
(jami iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

*2021 yil yanvar-iyun*



*2022 yil yanvar-iyun*



■ **Oziq-ovqat mahsulotlari**

■ **Nooziq-ovqat mahsulotlari**

Shu bilan birga o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘ati viloyatning bir necha tumanlarida kuzatilmoqda. Xususan, G‘allaorol (2,2 m.) va Paxtakor (53,4 %), Zafarobod (84,5 %) hamda Sharof Rashidov (42,8 %) tumanlarida yuqori o‘shish kuzatilgan.


2022 yilning 1 iyul holatiga hududlarning iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan hududlar G‘allaorol (39,6 %), Jizzax shahri (24,9 %), Paxtakor (8,4 %) va Sharof Rashidov (5,9 %) tumanlari hisoblanadi.

Viloyatda oziq-ovqat iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish sur‘atida eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahrida (136,8 %), Sharof Rashidov tumanida (3,3 m.) hamda Paxtakor tumanida (2,2 m.)ni qayd etildi.


Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 22,8 foiz shuningdek, G‘allaorol tumani 50,0 foiz, Paxtakor tumani 5,7 foizni tashkil etdi.



**Hududlarning iste'mol tovarlaridagi ulushi**  
(foiz hisobida)



**2022 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (8 018,9 ming so'm), Zafarobod (2 031,9 ming so'm) tumanida hamda G'allaorol (5 854,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 552,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.






2022 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarda aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi, viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.


Mazkur dastur doirasida 2022 yilning yanvar-iyun oylarida 2 304,0 mlrd. so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 20 761,8 ming AQSH dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilindi va 726 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.







2022 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da




Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 627,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,0 foizni tashkil etdi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Zafarobod (4,0 %), Doʻstlik (13,5 %) tumanlarida hamda Zarbdor (21,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




2022 yil yanvar-iyun oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da




Tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, kichik biznesning jami iste'mol mollari ishlab chiqarishdagi ulushi Do'stlik (53,1 %), Arnasoy (45,9 %) va Zarbdor (55,9 %) tumanlarida nisbatan past ko'rsatkichni qayd etgan.




2022 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



2022 yilning 1 iyul holatiga viloyatda 3 889 ta faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari bo'lib, ulardan 513 tasi yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari hisoblanadi.



Sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari, birlikda  
(2022 yilning 1 iyul holatiga)



Hududlar miqyosida olib qaralganida, sanoat tarmog'ida yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida (107 ta) va G'allaorol (59 ta) tumanida joylashgan.

Shuningdek, Sharof Rashidov tumanida (55 ta), Zarbdor (43 ta), Forish (20 ta), Do'stlik (30 ta), Paxtakor (33 ta), Zomin (56 ta), Baxmal (33 ta), Arnasoy (16 ta), Mirzacho'l (21 ta) Zafarobod (25 ta) va Yangiobod (15 ta) tumanlarida ham sanoat tarmog'idagi yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.